

KO'RISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR BILAN OLIB BORILADIGAN

PEDAGOGIK ISHLAR

Mirzayeva Arofat Abduhalilovna

Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti

“Pedagogika va psixologiya” kafedrası o‘qituvchisi.

mashxurakasimova5@gmail.com**Muxammadjonova Iroda Iskandar qizi**

Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti talabasi.

mukhammajonovairoda@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.15271725>

Annotatsiya. Ushbu maqolada ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan olib boriladigan pedagogik ishlar mazmuni, maqsadi va metodlari yoritilgan. Maxsus pedagogika sohasi doirasida ko‘rish imkoniyati cheklangan bolalarning individual xususiyatlari, psixofiziologik holati va ularni o‘qitish-tarbiyalash jarayonidagi yondashuvlar tahlil qilingan. Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan olib boriladigan pedagogik ishlarning mazmun-mohiyati, ularni ijtimoiy hayotga moslashtirishdagi muhim jihatlar, ta‘lim-tarbiya jarayonida qo‘llaniladigan metod va vositalar yoritilgan. Shuningdek, maxsus pedagogik yondashuvlar va inklyuziv ta‘lim sharoitlarida yaratiladigan imkoniyatlar haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta‘lim, nuqson, ko‘zida nuqsoni bor bolalar, sezgi sensori, analizator, maxsus ta‘lim, individual yondashuv, pedagogik metodlar, reabilitatsiya, moslashtirilgan dasturlar, sensor rivojlanish.

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ РАБОТА С ДЕТЬМИ С НАРУШЕНИЯМИ ЗРЕНИЯ

Аннотация. В данной статье раскрывается содержание, цель и методы педагогической работы с детьми с нарушением зрения. В рамках специальной педагогики анализируются индивидуальные особенности, психофизиологическое состояние детей с ограниченными возможностями зрения, а также подходы в процессе их обучения и воспитания. Освещается суть педагогической работы с такими детьми, важные аспекты их социальной адаптации, методы и средства, применяемые в образовательном процессе. Также рассматриваются специальные педагогические подходы и возможности, создаваемые в условиях инклюзивного образования.

Ключевые слова: инклюзивное образование, нарушение, дети с нарушением зрения, сенсорное восприятие, анализатор, специальное образование, индивидуальный подход, педагогические методы, реабилитация, адаптированные программы, сенсорное развитие.

PEDAGOGICAL WORK WITH CHILDREN WITH VISUAL IMPAIRMENTS

Abstract. *This article highlights the content, objectives, and methods of pedagogical work with children who have visual impairments. Within the scope of special pedagogy, the individual characteristics and psychophysiological conditions of children with limited vision, as well as the approaches used in their education and upbringing, are analyzed. The essence of pedagogical activities carried out with visually impaired children, key aspects of their social adaptation, and the methods and tools applied in the educational process are discussed. Furthermore, the article explores special pedagogical approaches and the opportunities created within the framework of inclusive education.*

Key words: *inclusive education, impairment, children with visual disabilities, sensory perception, analyzer, special education, individual approach, pedagogical methods, rehabilitation, adapted programs, sensory development.*

Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalar — bu to‘liq yoki qisman ko‘rish qobiliyatini yo‘qotgan, maxsus ta‘lim va tarbiya sharoitlariga muhtoj bo‘lgan shaxslardir. Mazkur toifadagi bolalar uchun ta‘lim jarayoni maxsus metodikalar asosida tashkil etilishi lozim. Pedagogik ishlarbolaning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda, uning aqliy, jismoniy va ijtimoiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga qaratiladi. Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan ishlashda individual yondashuv asosiy o‘rinda turadi.

Ushbu bolalar ko‘pincha atrof-muhitni eshitish, teginish, hid bilish orqali idrok etadilar.

Shu sababli sensor rivojlanishni rag‘batlantiruvchi mashg‘ulotlar — maxsus quloq bilan idrok qilish, Braille yozuvi, relyefli tasvirlar, audiomateriallardan keng foydalaniladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta‘lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta‘lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” 2021-yil 12-oktabrdagi 638-sonli qarorlariga muvofiq birinchi marta 2021-2022-o‘quv yilidan boshlab zamonaviy alohida ta‘limga ehtiyoji bo‘lgan bolalar uchun qulayumumta‘lim maktablariga qabul qilish boshlandi. Hozirgi XXI asrga kelib inklyuziv ta‘limda taxsil olayotgan bolalarga juda ham katta e‘tibor qaratilmoqda. Ular ham o‘qishga haqli.

Hamma bolalar kabi umum ta‘lim maktablarida o‘qigisi, tengdoshlari bilan birga dars jarayonlarida faol qatnashishni hohlaydi. Bu imkoniyat ularda bor. Ularning harakati tirishqoqligi boshqa sog‘lom bolalar uchun juda katta mativatsiya beradi. Inklyuziv ta‘lim alohida ta‘limga ehtiyoji bor bo‘lgan bolalarga quydagi imloniyatlarni beradi:

- o‘z harakatlari orqali imkoniyatlarini o‘zi uchun kashf etadi;

- hamkorlikda tengdoshlari bilan erkin ishlash imkoniyati, darslarda mustaqil fikr bildirish, faoliyat yuritish imkonini beradi;

-tengdoshlariga nisbatan dunyoqarashi kengayadi, hayotiy tajribasi oshadi;

-o'qishga bo'lgan ehtiyoji va qiziqishlari ortib boradi;

-ilgari ota-onalariga ham sezilmagan imkoniyatlari ochiladi;

-yotsirash, yakkalanish kabi xususiyatlari yo'qoladi;

inklyuziv ta'lim sog'lom bolalar hayotiga ta'siri quydagicha;

-o'zlariga o'xshamagan tengdoshlari, ularning hayoti, ehtiyojlarini his qiladilar;

-tengdoshlariga nisbatan g'amxo'rlik hissi uyg'onadi;

-ularni qo'llab-quvvatlash, yordam berishga intilish–insonparvarlik hissi tarbiyalanadi;

-o'quvchilarda atrofdagi imkoniyati cheklangan insonlarga, pozitiv munosabat, o'zaro hurmat tarbiyalanadi;

-o'quvchilarda bag'rikenglik hissi shakllanadi;

Inklyuziv ta'lim ishtirokchilari o'rtasida hamkorlik:

Maktabgacha ta'lim tarbiyachisi yoki boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Maxsus pedagog, Psixolog, Ota-ona.

Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarning jamiyatga moslashuvi, kundalik hayotga tayyorlanishida muhim. Reabilitatsiya ishlari doirasida quyidagilar amalga oshiriladi: makon va yo'nalish bo'yicha harakatlanishga o'rgatish; kundalik hayotda o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirish; muloqot va ijtimoiy muhitga moslashish bo'yicha treninglar.

Ko'rish nuqsoni bo'lgan bolalar uchun: Braille yozuvi; audio kitoblar va audio vizual qurilmalar; maxsus didaktik materiallar; informatsion-kommunikatsion texnologiyalar (ekran o'qish dasturlari, ovozli kompyuterlar) keng qo'llaniladi. Bu vositalar bolalarning mustaqil bilim olishiga, o'z fikrini bayon etishiga yordam beradi. Bugungi kunda O'zbekistonda inklyuziv ta'lim tizimi keng joriy etilmoqda. Bunda ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar sog'lom bolalar bilan birgalikda ta'lim oladi. Bu holat ularning ijtimoiylashuvi, teng imkoniyatga ega bo'lishi va jamiyatda o'z o'rnini topishida katta ahamiyat kasb etadi.

“Inklyuziv ta'lim” - “Barcha bolalarning turli xil ehtiyojlarini qondirish va ularga javob berish jarayoni, ta'limda, madaniyat va jamiyatda ishtirok etishni quvvatlash, ta'limdan va ta'limdan chetlatishni kamaytirish” ta'lim olish uchun keng imkoniyatlarni ta'minlash hamda barcha bolalarning individual xususiyatlaridan, oldingi yutuqlaridan, tili, madaniyati, ota-onalarning ijtimoiy va iqtisodiy holatidan qat'iy nazar ta'limda muvaffaqiyatga erishishi uchun zarur shart sharoitlarni yaratishdir. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlash – murakkab va mas'uliyatli jarayon bo'lib, u alohida yondashuv, maxsus bilim va ko'nikmalarni talab qiladi.

Bunday bolalarning jismoniy, aqliy va emotsional rivojlanishi ularning atrof-muhitni qanday idrok qilishi bilan bevosita bog'liqdir. Shuning uchun pedagogik faoliyatda ular uchun qulay, individual sharoitlar yaratish muhim hisoblanadi. Jamiyatda har bir bola to'laqonli ta'lim va tarbiya lish huquqiga ega. Ko'rishda nuqsoni bor bolalar ham jamiyatda faol ishtirok etishlari, bilim olishlari va mustaqil hayotga tayyor bo'lishlari lozim. Bunday bolalar bilan olib boriladigan pedagogik ishlar o'ziga hoslikka ega bo'lib o'qitish va tarbiyalash jarayonida maxsus pedagogik ishlar. Har qanday bilish dastlab oddiy sezgilardan boshlanadi. O'zimizni tilda aytadigan bo'lsak sezgilarimiz bizni borliq bilan bog'lab turuvchi vosita. Hayotimizda bo'ladigan jarayonlar ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish, teri sezgilari va boshqalar bizning sezgi bilimlarimizga asos bo'la oladi. Insonning sensor tuzilishi insonning tarixiy ijtimoiy tarqatqiyoti davomida shakllanib uning hayot va faoliyat mazmunini belgilaydi. Ko'rish timi boshqa analizatorlardan ustun turadi. 1880-yillardan boshlab tiflopsixologik tadqiqotlarda sezish chegaralarini o'rganish boshlangan edi. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarda psixik jarayonlar xususiyatlari turg'undir. L.S.Vigotskiyning anomal rivojlanishning murakkab strukturasi haqidagi g'oyasi Rossiya defektologiya va tiflopedagogikasida, jumladan, R.M.Boskis (1963); I.M. Solovyov (1956); M.I.Zemsova (1956); V.S.Sverlov (1949) va boshqalarning ishlarida rivojlantirildi. Bu ko'p jihatdan keyingi yillarda butun dunyoda kuzatilayotgan ko'rishda nuqsoni bo'lgan shaxslar tarkibining o'zgarishi bilan bog'liq. Qisman yoki zaif ko'ruvchilardagi sezgi chegaralari o'ziga xosligi bilan, nuqson chuqurligi bilan, uzviy bog'liqligi bilan ajralib turadi.

Ko'rishda nuqsoni boigan shaxsni, uning faolligi, ishchanlik qobiliyatini shakllantirish juda murakkab jarayon bo'lib, hosil bo'ladigan individual psixologik tizim turi, shakli va sifatini belgilaydigan ham ichki, ham tashqi xarakterdagi katta miqdordagi turlicha ta'sirlar, ularning murakkab hamkorligiga bog'liq. Uning shakllanishiga ta'sir etish uchun ko'rish buzilganda yuzaga keladigan psixik tuzilmalarning xususiyatlarini hisobga olish zarur. Psixik jarayonlar qanchalik ko'p va nozik farqlansa (differensiatsiyalansa) va ularning kechish tushunarli boisa, bola ma'naviyati va psixik rivojlanishi, shuningdek, uning xulqi darajasi shuncha yuqori boiadi, qolaversa, shaxsning shakllanishi tashqi olam ta'siri bolaning ichki holatiga adekvatligiga bog'liq.

Agar bu o'rab turgan olam psixik rivojlanish va qobiliyatlarni kengaytirish shartlariga muvofiq kelmasa, bolaning genetik strukturasi berilgan xossalar rivojlana, namoyon boia va kengaya olmaydi.

Tiflopedagogika – bu ko'rishda nuqsoni bor bolalarni o'qitish va tarbiyalash bilan shug'ullanuvchi maxsus pedagogika sohasi hisoblanadi. Mazkur soha nafaqat ko'rish nuqsonini bartaraf etishga emas, balki uning o'rnini bosuvchi hissiy va intellektual imkoniyatlarni rivojlantirishga qaratilgan. Tiflopedagogik yondashuvlar bolalarning idrok, nutq, xotira, tafakkur kabi psixik jarayonlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ko'rishda nuqsoni bor bolalar bilan ishlashda quyidagi asosiy pedagogik yo'nalishlar ajratiladi:

- didaktik yondashuv: O'quv materiallari oddiy ko'ruvchilar uchun emas, balki maxsus formatda – taktil (teginish asosidagi), audiovizual, Braille yozuvi orqali taqdim etiladi;
- individuallashtirish: Har bir bola uchun alohida rivojlanish xaritasi tuzilib, uning ehtiyojlari, salohiyati va nuqson darajasiga qarab mashg'ulotlar olib boriladi;
- ijtimoiylashtirish: Bolaning jamiyatga moslashuvi, jamoada erkin fikr bildirishi va mustaqil qaror qabul qilishiga yo'naltiriladi.

Pedagogik ishlar davomida quyidagi metod va vositalardan foydalaniladi:

- braille yozuvi va tegishli o'quv qurollari;
- ovozli darsliklar, elektron kitoblar;
- kompyuter texnologiyalari yordamida vizual informatsiyani eshitish orqali qabul qilish imkoniyati;
- Sensor rivojlantiruvchi vositalar (shakl, tovush, harorat ajratish vositalari);
- Psixologik-pedagogik diagnostika asosida tuzilgan mashg'ulotlar.

Ko'rishda muammosi bo'lgan bolalar ko'ruv o'tkirligiga ko'ra 2 turga bo'linadi:

1. Total ko'rlar - ko'rish o'tkirligi 0 bo'lgan bolalar Brayl tizimidagi yozuv asosida o'qiydi va yozadilar.
2. Qisman ko'rlar, ko'rish o'tkirligi 0,05 gacha bo'lgan bolalar saqlangan ko'rish imkoniyatidan foydalanib oddiy yozuvda o'qish va yozishi mumkin.

Zaif ko'ruvchilar ko'rish o'tkirligiga ko'ra quyidagicha turga bo'linadi:

- 1.Ko'ruv o'tkirligi 0, 05 dan 0, 1 gacha;
- 2.Ko'ruv o'tkirligi 0, 1 dan 0, 2 gacha;
- 3.Ko'ruv o'tkirligi 0, 2 dan yuqori 0, 4 gacha.

Ko'zi ojiz bolalar darsda o'quv materialni asosan taktil sezish va eshitish idroki asosida o'zlashtiradilar.

Ota-onalar va jamiyat bilan hamkorlik

Pedagogik jarayon faqat ta'lim muassasasi doirasida cheklanmasligi kerak. Ota-onalar bilan samarali hamkorlik, ularni pedagogik jarayonga jalb qilish, uy sharoitida bolaga to'g'ri yondashuvni o'rgatish orqali ko'rish nuqsonli bolalarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatish mumkin.

Ota-onalar bilvosita ishlash:

- ota-onalarga har qanday sharoitda va har qanday holatlarda aniq mutaxassislar bilan bog'lanish haqida ma'lumot berish (psixolog, o'qituvchi, direktor, direktorning tarbiyaviy ishlar bo'yicha o'rinbosari);

- ota-onalar uchun maktabda yoki sinf xonasida kitoblar, uslubiy adabiyotlar ko'rgazmasini tashkil etish;
- o'quvchilar bilimini, o'zlashtirish jarayonini, darsgalarga bo'lgan qiziqishlarini, adaptatsiya holatini kuzatib borishi uchun ota-onalarga mos tarqatma materiallar tayyorlash;
- uyda ota-onalarga ham alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchiga mo'ljallangan metodik adabiyotlar tarqatish;
- ota-onalarga uy vazifasi yoki bo'lajak tadbir, dam olish imkoniyatlari uchun yozma takliflar tayyorlash;
- ota-onalarning ehtiyoji va fikrlarini aniqlash uchun ma'lum bir grafik asosida so'rovnomalarni yuborish;
- maktabga farzandini olib ketish uchun kelgan ota-onalarga kutish joylarida stend yoki e'lonlar taxtasini tashkil etish.

Inklyuziv ta'lim jarayonida o'qituvchi, o'qituvchi-defektolog va oilaning hamkorligidan kutilayotgan natijalar: maktabdan kattalar hayotiga o'tishda (ijtimoiy hayotga kirishda);

Ota onalar o'z farzandlariga sog'lom tarbiya berib, voyaga yetkazsa, farzandining xayotga toza rux, olam – olam orzu intilishlari bilan qadam qo'yayotganini ko'rsa, umri ma'noga to'ladi, xayotd armon qolmaydi. Inson shaxsinig to'laqonli, atroflicha mukammal bo'lib, rivojlanishi, shakllanishi uchun barcha analizatorlar sog'lom bo'lishi darkor. Aks holda shaxs bir butun holda me'yoriy rivojlanishi bo'lmasligi mumkin. Analizatorlarning tuzilishi nafaqat atrofdan kelayotgan taasurotlarni qabul qilish balki ularni taxlil qilish, faoliyatni nazorat qilishni ta'minlaydi. Shui ta'kidlash joizki, ko'rish analizatorining zararlanishi nsonni ruxiy jarayonlarining turli tomonlariga salbiy ta'sir etar ekan.

Maktablarda ko'rishda nuqsoni bor bolalar ota-onalar bilan bevosita hamkorlikni tashkil etish ishlari:

Ota-onalar bilan navbatdan tashqari uchrashuvlarlar tashkil qilish, ular bilan ma'lumot almashish, bajarilgan va rejalashtirilgan ishlarning borishi va bolaning muvaffaqiyatlari haqida va kelajakdagi rejalarini muhokama qilish;

Ota-onalar yig'ilishidagi har bir berilgan savol va takliflarni yozib olish va muhokama qilish;

Ota-onalar uchun maxsus seminar, dialog, suhbat, rolli o'yinlar tashkil etish;

Inklyuziv ta'lim bo'yicha barcha ota-onalar uchun maxsus kurs tashkil etish;

Madaniy tadbirlarni o'tkazish va uni senariysini tayyorlashda ota-onalarni jalb qilish;

Ota-onalardan inklyuziv ta'limga bo'lgan o'z munosabatlarini, ko'rsatiladigan yordamdan keyingi umidlari haqida suhbatlashish.

Maktablarga ota-onani hamkorlikka jalb qilishning ahamiyati va afzalliklari:

O'quvchi haqidagi muhim tibbiy ma'lumotlarni taqdim etadi;

Bolaning uyga va jamiyatga bo'lgan qiziqish va intilishlari, hayotiy ko'nikmalarga oid muhim ma'lumotlarni beradi;

Uy sharoitida bolaning shaxsiy mahoratini mashq qildirish, ularni mustahkamlash, umumlashtirish va saqlash uchun yordam beradi bolaning ta'lim muhitiga moslashishi oson kechishida ko'maklashadi;

Shahsiy tajribalari va farzandlarini yutuqlari yuzasidan o'z tajribalari bilan boshqa otalar bilan bo'lishgan holda ularda ham inklyuziv ta'limga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishda yordam beradi.

Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan pedagogik ishlar — bu nafaqat o'qitish, balki tarbiyalash, moslashtirish, hayotga tayyorlash kabi murakkab va ko'p bosqichli jarayondir. Ushbu jarayonda pedagoglar, psixologlar, logopedlar, ota-onalar hamkorlikda ishlashi zarur. Maxsus metodikalar, vositalar, sharoitlar va eng muhimi — mehr-muhabbat asosidagi yondashuv bu bolalarning to'laqonli hayot kechirishiga xizmat qiladi.

L.S.Vigotskiy tomonidan, ko'rlar oltinchi sezgi (harakat) ga egaligi ko'rsatilib, u ularga predmetlarni masofada sezishga ranglarni ham sezishga imkoniyat yaratadi. Ta'lim jarayonida pedagog, ota-onalar ko'rlikni kompensasiya qilish bolada uning hayotining birinchi oylaridan boshlanishini hisobga olish lozim. Ko'rlikni kompensasiyalash, deydi L.I.Solnseva, butun psixik ta'lim tizimini, sensor tizimini, intellektual komponentlarni o'z ichiga oladiki, bular bolalarga adekvat va tashqi dunyoni aktiv aks etiradigan va bolalarni yoshiga qarab har xil shakldagi faoliyat bilan shug'ullanishiga imkoniyatlar yaratib beradi. Zaif ko'ruvchilar hodisalar, predmetlar bilan tanishganda shuningdek maydon orientirovkasini olishda va harakatlanganda ularda saqlanib qolgan ko'ruvdan foydalaniladi. Masalan, ko'zi ojizlarda ranglarni idrok etish buzilgan holatda bo'ladi. Keskin ifodalangan yaqindan ko'rishda va uzoqdan ko'rishda ko'zi ojizlar ba'zi bir predmetni ifodalaydigan hira-shira belgilarni payqamasdan qolishi mumkin.

Maxsus ta'lim erta boshlangandan normal maydon va stereoknopik ko'ruv yaxshi rivojlanadi va mukammallashadi, bu ularda kelajakda murakkab fazoviy ko'rgazmalarni idrok etish imkonini beradi. Ota onalar o'z farzandlariga sog'lom tarbiya berib, voyaga yetkazsa, farzandining xayotga toza rux, olam – olam orzu intilishlari bilan qadam qo'yayotganini ko'rsa, umri ma'noga to'ladi, xayotd armon qolmaydi.

Inson shaxsinig to'laqonli, atroflicha mukammal bo'lib, rivojlanishi, shakllanishi uchun barcha analizatorlar sog'lom bo'lishi darkor. Aks holda shaxs bir butun holda me'yoriy rivojlanishi bo'lmasligi mumkin. Analizatorlarning tuzilishi nafaqat atrofdan kelayotgan taasurotlarni qabul qilish balki ularni taxlil qilish, faoliyatni nazorat qilishni ta'minlaydi.

Shuni ta'kidlash joizki, ko'rish analizatorining zararlanishi nsonni ruxiy jarayonlarining turli tomonlariga salbiy ta'sir etar ekan. Atoqli psixolog L. V. Zankov 1935 yildan L. S. Vigotskiy bilan hamkorlikda ishladi. Bu olimlarning olib borgan tadqiqot ishlari psixologiya va korreksion pedagogikaning nazariy jihatdan shakllanishida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Ular aqliy jihatdan qoloq bolalar psixikasi taraqqiyoti qonuniyatlarini noto'g'ri tushunishga qarshi chiqdilar, «rivojlanishning to'xtash nazariyasi», «chegara» degeneratsiya nazariyasi», «ma'naviy defektlar» kabi g'ayri ilmiy va reaktiv nazariyalarni fosh etdilar. Eksperimental psixologiya laboratoriyasida anomal bolalarning rivojlanishi maxsus ta'lim ta'siri ostida qanday o'zgarib borishini o'rganish, ulardagi mavjud nuqsonlarni ham, ijobiy tomonlarini ham aniqlash yuzasidan qiyosiy eksperimental tadqiqotlar o'tkazildi. Ko'zi ojiz shaxslarni taraqqiyotining manbaalarini bilmay turib, ular ta'limiga yondosha olmaymiz. Ko'zi ojizlar ham sog'lom insonlar kabi yashashga, ilm olishga, ishlash va hayotda o'z o'rnini topishga xaqdirlar. Davlatimiz siyosati, albatta, ko'zi ojiz insonlarni ham inobatga olib, ta'lim-tarbiya jarayonlariga ijobiy o'zgarishlarni olib kelmoqda. Chunki bizning ma'naviy merosimiz va muqaddas dinimizda komil inson tarbiyasi asosiy mavzu sifatida talqin etilgan. Ota onalar o'z farzandlariga sog'lom tarbiya berib, voyaga yetkazsa, farzandining xayotga toza rux, olam – olam orzu intilishlari bilan qadam qo'yayotganini ko'rsa, umri ma'noga to'ladi, xayotd armon qolmaydi.

Inson shaxsinig to'laqonli, atroflicha mukammal bo'lib, rivojlanishi, shakllanishi uchun barcha analizatorlar sog'lom bo'lishi darkor. Aks holda shaxs bir butun holda me'yoriy rivojlanishi bo'lmasligi mumkin. Analizatorlarning tuzilishi nafaqat atrofdan kelayotgan taasurotlarni qabul qilish balki ularni taxlil qilish, faoliyatni nazorat qilishni ta'minlaydi.

Shuni ta'kidlash joizki, ko'rish analizatorining zararlanishi nsonni ruxiy jarayonlarining turli tomonlariga salbiy ta'sir etar ekan.

Xulosa. Mazkur maqola ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun logopedik ishlarning zarurligini va ahamiyatini yoritishga qaratilgan. Unda ko'zi ojiz bolalar o'z nutqiy rivojlanishida ko'pincha muayyan qiyinchiliklarga duch kelishi, bu esa ularning jamiyat bilan muloqot qilish, bilim olish va shaxsiy rivojlanish imkoniyatlarini cheklashi ta'kidlanadi. Maqolada logopedlarning ushbu bolalar hayotidagi o'rnini keng yoritilgan. Ayniqsa, nutqni to'g'ri shakllantirish, talaffuzdagi nuqsonlarni bartaraf etish va nutqiy faoliyatni rivojlantirish orqali ular mustaqil hayotga tayyorlanishi mumkinligi tushuntiriladi. Shuningdek, muallif logopedik yondashuvlar yordamida bolalarning psixologik holatini yaxshilash, o'ziga bo'lgan ishonchni oshirish va ularni jamiyatga moslashtirishda erishilgan natijalarni tahlil qiladi. Maqola ko'zi ojiz bolalar bilan ishlashda logopedik xizmatning nafaqat zarurligini, balki uning ularning hayot sifatini oshirishdagi asosiy vositalardan biri ekanligini asoslaydi. Ushbu material maxsus pedagogik sohada faoliyat yuritayotgan mutaxassislar uchun amaliy va ilmiy ahamiyatga ega.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 13-oktyabrdagi PQ-4860-son qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktyabr "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi No-638-sonli Qarori.
4. Abduraxmonov A., Rajabova G. Maxsus pedagogika. – Toshkent: TDPU, 2021.
5. Juraeva M. Inklyuziv ta'lim: nazariya va amaliyot. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2020.
6. Sharipov Sh.S. Defektologiyaga kirish. – Toshkent: "O'qituvchi", 2019.
7. Xodjibekova M. Ko'zi ojiz bolalar bilan olib boriladigan koreksion ishlar. – Toshkent: TDPU, 2022 8.G'ofurov A.M. Maxsus ehtiyojli bolalar psixologiyasi. – Samarqand: Samarqand nashriyoti, 2021.
8. Mahsus psixologiya L.R. Mo'minova, O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent — 2013
9. N.Abidova "Ko'rishga nuqsoni bo'lgan bolalar rivojlanish xususiyatlari" (Respublika Ilmiy-amaliy anjumanining maqolalar to'plami) 2011 yil.
10. "Inklyuziv ta'limning dolzarb masalalari: muammo va ularning echimlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konfyerensiya matyeriallari to'plami. "Lesson-Press" nashriyoti, Toshkent-2021.
11. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.